

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Moliya” kafedrası

“Moliyaviy bozor va portfel nazariyasi” fanidan 2025/2026-o‘quv yili bahorgi semestrda yakuniy imtihon (test)da tushadigan savollar ro‘yxati

1. Banklar moliya bozorida qanday asosiy funksiyalarni bajaradi?
2. Banklar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar qanday moliyaviy vosita hisoblanadi?
3. Markaziy bankning foiz stavkasi qanday yo‘l bilan bank faoliyatiga ta’sir qiladi?
4. Banklar likvidligini boshqarishda qanday moliyaviy bozor vositalaridan foydalanadi?
5. Quyidagilardan qaysi biri banklar uchun sistematik xavf manbai hisoblanadi?
6. Kapital bozori nima uchun banklar uchun muhim?
7. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan “repo” bitimlari nimani anglatadi?
8. Bank aktivlarining diversifikatsiyasi qanday xavf bilan kurashishga yordam beradi?
9. Banklarning investitsion faoliyati asosan qanday bozorda amalga oshiriladi?
10. Kredit reytingi past bo‘lgan davlat obligatsiyalarini banklar nima deb ataydi?
11. Banklar valyuta bozorida qanday rol o‘ynaydi?
12. Bank kapitalining yetarlilik ko‘rsatkichi nimani anglatadi?
13. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan hedj operatsiyalari qanday maqsadga xizmat qiladi?
14. Derivativlar bozori banklar uchun qanday ahamiyatga ega?
15. Banklar uchun asosiy regulyator organ qaysi?
16. Banklar qimmatli qog‘ozlar bozorida qanday ishtirok etadi?
- “M0” pul massasi nimani bildiradi?
17. Banklar tomonidan kapital bozorida chiqarilgan aksiyalar qanday vazifani bajaradi?
18. Bank risklarini boshqarish tizimining asosiy elementi nima?
19. “Basel III” standartlari nimalarni tartibga soladi?
20. Nobank kredit institutlariga qaysi tashkilot misol bo‘la oladi?
21. Nobank kredit institutlarining asosiy faoliyat yo‘nalishi nima?
22. Kredit kooperativlari qanday asosda tashkil etiladi?
23. Lombardlar qanday xizmat ko‘rsatadi?
24. Nobank moliyaviy institutlar qanday tashkilotlardan farq qiladi?
25. Mikromoliya tashkilotlari odatda qanday mijozlarga xizmat ko‘rsatadi?
26. Lizing kompaniyalari qanday faoliyat bilan shug‘ullanadi?
27. Nobank kredit institutlari faoliyati kim tomonidan tartibga solinadi?
28. Kredit uyushmalari qanday moliyalashtiriladi?
29. Lizing qanday afzallikni beradi?
30. Nobank moliyaviy institutlar moliya bozorida qanday rol o‘ynaydi?
31. Mikro kredit nima?
32. Nobank kredit institutlarining asosiy maqsadi nima?
33. Sug‘urta kompaniyalari nobank institutiga kiradimi?

34. Lizing shartnomasi tugagach, mol-mulk kimga o'tadi?
35. Nobank institutlar ko'pincha qanday kreditlar beradi?
36. Lombardlar qanday turdagi garovlarni qabul qiladi?
37. Nobank institutlar qaysi sohalarida faoliyat yuritishi mumkin?
38. Kredit kooperativining asosiy xususiyati nima?
39. Nobank kredit institutlarining ustunligi nimada?
40. Pay investitsiya fondi deganda nimani tushunasiz?
41. Investitsiya fondining asosiy maqsadi nima?
42. Pay fondlarida investor nima oladi?
43. Ochiq turdagi investitsiya fondi qanday xususiyatga ega?
44. Qaysi tashkilot investitsiya fondi faoliyatini nazorat qiladi?
45. Investitsion portfel nima?
46. Pay fondiga investitsiya qilishning afzalligi nimada?
47. Qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishni fond qanday amalga oshiradi?
48. Investitsiya fondining foydasi investorga qanday taqsimlanadi?
49. Qaysi holatda fond qiymati o'zgaradi?
50. Pay fondlarida boshqaruvchi kompaniya vazifasi nima?
51. Yopiq fondlar qanday farq qiladi?
52. Diversifikatsiya nima uchun muhim?
53. Pay investitsiya fondining daromadiga nima ta'sir qiladi?
54. Fond aktivlari deganda nimani tushunamiz?
55. Investitsiya fondiga a'zo bo'lish uchun nima kerak?
56. Fond aktivlarini kim boshqaradi?
57. Fondga investitsiya qilganda investor qanday xavfga duch keladi?
58. Investitsiya fondlarining moliyaviy hisobotlari qanday e'lon qilinadi?
59. Pay fondlari kimlar uchun mos?
60. Suveren fond nima?
61. Suveren fondlarning asosiy manbai nima bo'ladi?
62. Suveren fondlarning asosiy vazifasi nima?
63. Suveren fondlar asosan qanday aktivlarga investitsiya qiladi?
64. Suveren fondlarni kim boshqaradi?
65. Quyidagi davlatlardan qaysi biri dunyodagi eng yirik suveren fondga ega?
66. Suveren fondlar qanday iqtisodiy xavfga qarshi kurashadi?
67. Suveren fondlar asosan qanday strategiya asosida boshqariladi?
68. Stabilizatsiya fondi nima vazifani bajaradi?
69. Suveren fondlar qanday holatda daromad keltiradi?
70. Qaysi fond suveren fondlar toifasiga kirmaydi?
71. Suveren fondlar qaysi tashkilot bilan bevosita aloqada bo'ladi?
72. Suveren fondlar davlatga qanday foyda keltiradi?
73. Suveren fondlar aktivlarini diversifikatsiya qilish nimaga xizmat qiladi?
74. Suveren fondlar qaysi yo'nalishda investitsiya qilmaydi?
75. Suveren fondlar faoliyatini kim nazorat qiladi?
76. Suveren fondlar orqali qanday iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi?
77. Suveren fondlarning ishlatilishi qanday yillik hisobotda ko'rsatiladi?
78. Suveren fondlar va davlat budjeti o'rtasida qanday aloqa mavjud?

79. Suveren fondlar kelajak avlodlar uchun qanday rol o'ynaydi?
80. Kriptovalyuta nima?
81. Bitcoin qachon yaratilgan?
82. Kriptovalyutalar qaysi texnologiya asosida ishlaydi?
83. Kriptovalyuta konchiligi (mayning) nima?
84. Ethereum platformasi qanday imkoniyat beradi?
85. Blokcheyn nima?
86. Kriptovalyutalar qanday xususiyatga ega?
87. Kriptobirja nima?
88. Stablecoinlar nima?
89. Kripto hamyon (wallet) nima?
90. DeFi (decentralized finance) nima?
91. NFT nima?
92. Kriptovalyuta tranzaksiyalari qanday ishlaydi?
93. Kriptovalyutaga egalik qilishni qanday isbotlash mumkin?
94. "Token" atamasi nimani bildiradi?
95. ICO (Initial Coin Offering) nima?
96. Kriptovalyutaning asosiy xavfi nimada?
97. Kriptovalyuta bozori qanday tartibga solinadi?
98. Eng ko'p ishlatiladigan kriptovalyutalar qatoriga nima kiradi?
99. Kriptovalyuta qanday daromad manbai bo'lishi mumkin?
100. Blokcheyn texnologiyasi nima?
101. Blokcheyn qanday xususiyatga ega?
102. Blokcheynning asosiy elementi nima?
103. Blokcheyn qanday turga bo'linadi?
104. Blokcheyn texnologiyasida "hash" nima?
105. Blokcheyn tizimida ma'lumotlar qanday tasdiqlanadi?
106. Blokcheyn texnologiyasi birinchi marta qayerda qo'llangan?
107. Blokcheyn texnologiyasi nimani kafolatlaydi?
108. Konsensus mexanizmi blokcheynda nima uchun kerak?
109. "Smart-kontrakt" (aqlli kontrakt) nima?
110. Blokcheyn texnologiyasi qaysi sohalarda qo'llanilishi mumkin?
111. Blokcheyndagi har bir blok tarkibida nima bo'ladi?
112. Blokcheynni "o'zgartirib bo'lmaydigan" qiluvchi asosiy sabab nima?
113. "Permissioned blockchain" qanday tizim?
114. Blokcheynda "fork" nima?
115. Blokcheyn asosidagi tizimda foydalanuvchi qanday identifikatsiyalanadi?
116. Blokcheyn qanday tranzaksiyalar uchun mos?
117. Blokcheyn texnologiyasi orqali qanday xizmatlar avtomatlashtiriladi?
118. Blokcheynning eng asosiy afzalligi nima?
119. Blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda saylovlar qanday bo'lishi mumkin?
120. Moliyaviy texnologiyalar (fintex) nima?
121. Moliyaviy texnologiyalar rivojlanishining asosiy sababi nima?
122. Fintex texnologiyalarning asosiy vazifasi nima?

123. Fintex xizmatlariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?
124. Fintex texnologiyalarining paydo bo'lishi qanday zarurat bilan bog'liq?
125. Fintex kompaniyalari nimani taklif etadi?
126. Moliyaviy inklyuziya nima?
127. Fintex texnologiyalarining ijtimoiy foydasi nimada?
128. Fintex kompaniyalarining asosiy raqibi kim?
129. Fintex kompaniyalarining asosiy afzalligi nima?
130. Mobil banking tizimining joriy etilishi qanday zaruratdan kelib chiqqan?
131. Kraudfanding nima?
132. Fintex sohasining o'sishi qanday omillar bilan bog'liq?
133. Blokcheyn texnologiyasi fintexda nima uchun muhim?
134. Fintex ilovalari orqali foydalanuvchilar nima qila oladi?
135. Fintex sohasidagi regulyatorlarning vazifasi nima?
136. Fintexda ishlatiladigan "API" nima?
137. Fintex kompaniyalari faoliyatida sun'iy intellekt qanday rol o'ynaydi?
138. Moliyaviy texnologiyalar kelajakda nimaga olib keladi?
139. Raqamli iqtisodiyot nima?
140. Moliyaviy texnologiyalar raqamli iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?
141. Raqamli to'lov tizimlari nimani ta'minlaydi?
142. Fintex raqamli iqtisodiyotning qaysi sohalariga ta'sir ko'rsatadi?
143. Fintex texnologiyalarining asosiy afzalligi nima?
144. Raqamli moliyaviy xizmatlarning tarqalishiga nima sabab bo'ladi?
145. Raqamli banking nima?
146. Fintexda "big data" texnologiyasi nima uchun ishlatiladi?
147. Raqamli moliyaviy xizmatlar qanday xavfni kamaytiradi?
148. Fintex orqali kredit olishda qanday yondashuv qo'llaniladi?
149. Fintex innovatsiyalarining rivojlanishiga nima turtki beradi?
150. Aqlli kontraktlar (smart contracts) nimani ta'minlaydi?
151. Raqamli moliya xizmatlarida biometrik identifikatsiya nima uchun ishlatiladi?
152. Fintex xizmatlarida "blokcheyn" texnologiyasining roli qanday?
153. Fintex kompaniyalarining biznes modeli nimaga asoslanadi?
154. Raqamli moliyaviy xizmatlardan kimlar foydalanishi mumkin?
155. Raqamli moliyaviy xizmatlarda xavfsizlikni ta'minlash uchun nima zarur?
156. Raqamli iqtisodiyotda fintex qanday imkoniyat yaratadi?
157. Fintex kompaniyalari qanday afzallik beradi?
158. Raqamli iqtisodiyotda fintex texnologiyalarining roli qanday baholanadi?
159. Intellektual tizimlar deganda nima tushuniladi?
160. Moliyaviy sohada intellektual tizimlar qaysi maqsadlarda qo'llaniladi? Sun'iy intellekt moliyaviy xizmatlarda qanday afzallik beradi?
161. Moliyaviy sektorda "chatbot"lar qanday vazifani bajaradi?
162. Aqlli tizimlar qanday moliyaviy xavflarni aniqlashi mumkin?
163. Moliyaviy intellektual tizimlarda ma'lumotlar qanday ishlanadi?
164. Kredit risklarini baholashda sun'iy intellekt qanday yordam beradi?
165. Intellektual tizimlar yordamida qanday xizmatlar avtomatlashtiriladi?

166. "Machine learning" (mashinali o'rganish) texnologiyasi moliya sohasida qanday qo'llaniladi?
167. Intellektual tizimlar asosidagi maslahatchi platformalar qanday xizmat ko'rsatadi?
168. Kiberxavfsizlikda sun'iy intellektning roli qanday?
169. Aqlli tizimlar moliyaviy xizmatlarda qanday ishonchlilikni ta'minlaydi?
170. Intellektual tizimlar orqali qanday qarorlar qabul qilinadi?
171. Moliyaviy bozor monitoringida intellektual tizimlar qanday yordam beradi?
172. Intellektual tizimlar yordamida moliyaviy hisobotlar qanday yuritiladi?
173. Moliyaviy mahsulotlarni shaxsiylashtirishda intellektual tizimlar qanday rol o'ynaydi?
174. Intellektual tizimlar asosida ishlovchi "robo-advisor" nima?
175. Foydalanuvchi tajribasini (UX) yaxshilashda sun'iy intellekt qanday yordam beradi?
176. Moliyaviy texnologiyalar sohasida eng ko'p foydalaniladigan intellektual tizim turi bu:
177. Intellektual tizimlar moliyaviy xizmatlar rivojida qanday strategik ahamiyatga ega?
178. Quyidagi kayd etilganlarning kaysi biri davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarishning bevosita usuli hisoblanadi?
179. Quyida kayd etilganlarning qaysi biri davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarishning bilvosita usuli hisoblanadi?
180. Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi qachon tashkil etilgan?

"Moliya" kafedrasini mudiri, i.f.d., prof.



J.R.Zaynalov